O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2025-yil 18-oktabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI O‘Z QATLAMGA OID IJTIMOIY MUNOSABAT SEMALI LEKSEMALAR

LEXEMES WITH SEMEMS OF SOCIAL RELATIONS IN “DEVONU LUGOTIT TÜRK” RELATED TO THE PRIMORDIAL LAYER

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/GIVM4508

Azizova Nilufar Rajavaliyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
nurrano@outlook.com

Annotatsiya. *Maqolada “Devonu lug‘otit turk”ning o‘rganilishi, mazmuni, muhim leksikografik manba ekanligi qayd etilgan. Ijtimoiy munosabat semali turkiy leksemalarning ma’no xususiyatlari tahlil qilingan. Istilohlarning semantik xususiyatlari, yasalishi, yangi leksemalarning denotat tushunchaga aloqador ma’nolarni hosil qilishi misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Terminlarning keyingi davrlarda qo‘llanishi, o‘zidan avvalgi va keyingi terminlarga, o‘zlashma birliklarga munosabati yoritilgan. Ijtimoiy munosabat semali leksemalarning qadimgi turkiy til hamda hozirgi o‘zbek tiliga munosabati, qo‘llanish xususiyatlari tahlilga tortilgan. Terminlarning bir necha ma’noda ishlatilishi, istilohlar semantikasning xalq turmush tarzi va madaniyati bilan aloqadorligi ko‘rsatib berilgan. Terminlarning tashqi tuzilishi, fonetik o‘zgarishlar tahlil qlingan. Eski o‘zbek tilining boy ijtimoiy terminologik tizimiga xos xususiyatlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy munosabat, fonetik o‘zgarishlar, leksema, semantik xususiyatlar, turkiy leksema, arabcha, forscha-tojikcha leksema, terminologik tizim.*

Annotation. *This article describes the study, content, and significance of the “Devonu lug‘otit turk” dictionary as a lexicographic source. It analyzes the semantic properties of Turkish lexemes with social-relational meaning. Examples illustrate the semantic properties of terms, their formation, and the formation of new lexemes with meanings related to denotative concepts.*

The use of terms in later periods, their connections to preceding and subsequent terms, and units of assimilation are examined. The relationship of lexemes with socio-relational meaning to the Old Turkic and modern Uzbek languages and the specifics of their use are analyzed.

The use of terms in multiple meanings is demonstrated, as well as the connection between their semantics and the people's way of life and culture. The external structure of the terms and their phonetic changes are analyzed. The features inherent in the rich social terminology of the ancient Uzbek language are revealed.

Keywords: *social attitude, phonetic changes, lexeme, semantic features, Turkic lexeme, Arabic language, Persian-Tajik lexeme, terminological system.*

Turkologiya doirasidagi tadqiqotlarda “Devonu lug‘otit turk” turkiy xalqlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olishi, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, madaniyat, geografiya, iqtisodiyot, diniy tafakkur, ruhiyat masalalari ifodalangani qayd etilgan. Lug‘at boyligining mavzuiy tasniflari keltirilib, ijtimoiy hayotning barcha soahalariga mansub so‘zlarni qamrab olgani ilmiy jihatdan tavsiflangan [Dadaboyev, 2017].

“Devonu lug‘otit turk”ning turk tilshunosligida o‘rganilishi alohida bosqichni tashkil etadi. A.M. Sherbak turkiy tillarga oid zoonimlarni tadqiq qilish davomida hayvon nomlarini qayd etishda va izohlashda “Devon”ga murojaat qildi [Sherbak, 1961:82-172].

“Devonu lug‘otit turk”da ijtimoiy munosabat semasi bir qator leksemalar bilan ifodalangan. Turkiy so‘zlar bilan bir qatorda forscha, arabcha leksemalar ham uchraydi. “Devon”da qo‘llangan turkiy leksemalar keng semantik imkoniyatga egaligi, ijtimoiy sohaga oid turli tushunchalarni qamrab olishi, o‘ziga xos fonetik strukturasi va yasalish tizimiga egaligi bilan farqlanib turadi. Ushbu maqolada “Devon”da keltirilgan ijtimoiy munosabat semali ayrim leksemalar borasida to‘xtalamiz.

Lug‘atda keltirilgan ***tamğa*** so‘zi ijtimoiy-siyosiy aloqalarda faol qo‘llangan. Lug‘atda ikki xil ma'nodagi, ya'ni omonimik munosabatdagi *tamğa* so‘zlari izohlangan:

tamğa I. Shoh va boshqalarning tamg‘asi, muhri;

tamğa II. Dengiz, ko‘l va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmog‘i. Lug‘atshunoslik ta'kidicha, daryoda qayiq to‘xtaydigan joy ham *tamg‘a* deyilgan (DLT, I, 400).

Mahmud Koshg‘ariy o‘g‘uz tiliga xos “xon muhri” ma'nosidagi ***tuğrağ*** terminini ham keltiradi. Bu istiloh omonim xarakterda bo‘lib shoh tomonidan jang vaqtida askarlarga berilib, jang tugagandan keyin qaytarib olinadigan otga nisbatan ham qo‘llangan (DLT, I, 430).

“Qutadg‘u bilig”da *tamğa* so‘zi bilan bog‘liq *tamğačï* termini ham keltirilgan. *Tamğačï* alohida saroy lavozimlaridan biri bo‘lib, “tamg‘ani qo‘riqlovchi shaxs” ma'nosini anglatgan: *köni bolsa qïlqï bolur tamğačï* (DTS, 530). Eski o‘zbek adabiy tilida bu istiloh o‘rnini *muhrdor* o‘zlashmasi egallagan [Dadabayev, 1991:48]. *Tamğa* nafaqat davlat belgisi, balki ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liq muhim belgi sifatida ham ahamiyatga ega bo‘lgan. Chorvachilik bilan shug‘ullangan turkiy xalq vakillari hayvonlarni maxsus tamg‘alar (uy-ro‘zg‘or buyumlari, hayvonlar) shakli bilan muhrlashgan.[Xolmuradova, 2019:67]. “Qadimgi uyg‘ur yodgorliklarida *tamğa* so‘zi “belgi” ma’nosida ham uchraydi [DTS, 568]. Alisher Navoiy asarlarida bu leksema “belgi, alomat, muhr” ma'nosi bilan birgalikda “jarohat” ma’nosini ham anglatgan:

Kimki ra ‘nälïq bilä äšïq bolub istär visál,

Tartïŋïz atqa xat išq ahliniŋ tamğasïdïn [ANATIL, III,177].

Tamğa so‘zi aslida qadimgi turkiy tildagi “bog‘lamoq”, “yopishtirmoq” ma’nosidagi *taq-* fe’liga *–ma* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Keyinchalik m undoshi ta’siri bilan q undoshi *ğ* undoshiga almashgan, so‘ngra *ğ*, *m* undoshlari o‘rin almashgan [ESTYa, III, 144].

Bir kishiga yozilgan maxsus dasturxon ***tamğalïq*** istilohi bilan ifodalangan. Asli ***tamğalïğ*** so‘zi “muhrli” degan ma'noni anglatadi. Odatda podsho o‘ziga xos dasturxon va ko‘zachani muhrlab qo‘yadi, unda bir kishiga loyiq sharob va ovqat bo‘ladi. So‘ngra har bir kichik ko‘zacha va dasturxon shunday ataladigan bo‘ldi. Buning ma’nosi podshodan boshqa odam undan ovqat yemasligi uchun tamg‘a urilgan dasturxon demakdir [DLT, I, 429].

“Shoh askarlariga tayinlangan yashirin belgi, parol” ma’nosida ***im*** so‘zi keltiriladi; bu belgi qush yoki qurol nomi yoki biror so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin; askarlar uchrashganida o‘sha parolni aytib o‘zlarini tanitadilar; ***im*** so‘zi bo‘yicha asarda quyidagi maqol kelgan: *İm bilsä er ölmäs* (Kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o‘lmaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladigan *imlamoq*, *imo qilmoq* kabi so‘zlarning ildizi shu istilohga borib taqaladi. [DLT, I, 74].

Asarda “xon yoki shohning mukofoti” ma’nosida ***ačïğ*** leksemasi keltiriladi: *Xan meŋä ačïğ berdi* – xon menga mukofot berdi. [DLT, I, 94]. “Qutadg‘u bilig”da bu so‘zning uchta ma'nosi keltiriladi: 1) achchiq, nordon, sho‘r, og‘ir, qiyin, mashaqqatli; 2) alamli, qo‘pol, dag‘al; 3) mukofot, sovg‘a, in’om, hadya: *Ağïrlïq ačïğ artğa mentïn säŋgä* – Hurmat va ehtiromim mendan senga sovg‘a [QBH 35_3].

Bir daraja quyi mansab nomi ***ögä*** deb ataladi. Aslida, tajribali, aqlli, ko‘p yashagan odamga nisbatan ögä leksemasi qo‘llaniladi. Bu leksemaning asosi *ög* “aql, zakovat” so‘ziga bog‘liq. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, bu mansabning kelib chiqishi tarixi shundayki, Zulqarnayn Chinga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo‘lladi. Vazir shohga aytdi: “Siz butunlay yoshlarni chaqirdingiz, aslida katta yoshli, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi,deganda ükä so‘zini tajribali, katta yoshli ma'nosida qo‘lladi. Shunda shoh “to‘g‘ri” deydi va katta yoshli kishilarni yo‘llaydi. [DLT, I, 117].

Shohlar uchun maxsus qo‘llanuvchi ulkan kosa shaklidagi xontaxtaga ***išküm*** deyilgan. Uning oyoqlari bo‘lmaydi va faqat hukmdorning ziyofati uchun qo‘llangan. Hozir o‘zbek shevalarida qo‘llaniladigan *ishkom* so‘zining ildizi ham shu so‘zga borib taqaladi [DLT, I, 132]. Toklarni ko‘tarib qo‘yish, tarash, yoyish uchun poya va bag‘azlardan baland qilib qurilgan yoysimon so‘ri; *vayish* [O‘TIL, II, 256].

Sulton tomonidan o‘ziga yuborilgan elchining qaytib ketishga berilgan ijozat qog‘ozi ***bušuğ*** deyilgan. Bu so‘z elchilarga berilgan tuhfaga nisbatan ham qo‘llangan [DLT, I, 353]. Shuningdek, ***bušuğ*** so‘zi bir qarindosh o‘z qarindoshi huzuriga uzoqdan kelib, qaytish vaqtida qarindosh, yaqinlarni chaqirib, berilgan tortiqlarga nisbatan ham qo‘llangan. Ularga tayyorlangan ovqatga ham *bušuğ aši* deyiladi. Bu “ruxsat oshi” deganidir [DLT, I, 353]. Bu o‘rindagi ma’no ko‘chishini

“sufra” so‘zining qo‘llanishiga qiyoslash mumkin. *Sufra*ning asl ma'nosi musofir uchun qilinadigan taom bo‘lsa, keyinchalik u taom yoziladigan teridan qilingan dasturxonga nisbatan qo‘llanilgan.

Uyg‘ur xonining muhri bosilib, savdo-sotiqda pul o‘rnida foydalaniladigan bo‘yi to‘rt gaz va eni bir qarich bo‘lgan bo‘z bo‘lagi ***qamdu*** deb atalgan. Agar mato eskirib, xonning muhriga zarar yetsa yoki xiralashsa, yetti yildan so‘ng yuvilib, yangi muhr bosilgan [DLT, I, 395]. Muhr bosish uchun foydalaniladigan mum *law* deb atalgan [DLT, III, 169]. Hozirgi kunda ingliz tilida faol qo‘llaniladigan *law* “qonun” so‘zining ham shu leksemaga aloqasi bo‘lishi mumkin.

“Ikki va undan ortiq kishi orasida elchilik munosabati” sememasi *yumuš* leksemasi yordamida anglashilgan. Bu leksema ***-čï*** affiksini qo‘shib, “hukmdor” ma'nosidagi ***yumuščï*** istilohi yasalgan. Shu o‘rinda lug‘atnavis “shoh”, “hukmdor” ma'nosidagi arabcha *malik* istilohini turkiy urug‘lar bilmasligini alohida ta'kidlagan [DLT, III, 19]. Ijtimoiy qurilish bilan aloqador leksik birliklar mikromaydonida elchilikka oid istilohlar ham faol qo‘llangan.

“Devon”da *bitik* terminining uch ma’nosi qayd qilingan: 1. Kitob. *2.* Yozuv (xat): *“anïŋ bitigi belgülük* ~ uning yozuvi ma'lum, belgilik”; 3. Tumor (o‘g‘uzcha): *“ol bitik juldï* ~ u kitobni ko‘chirib yozdi”; *“ol bitik juzadï* — u xatni o‘chirmoq istadi”; *«ol bitik tamğaladï* — u xatga, kitobga xon tamg‘asini urdi“; *“Men aŋar bitik jutturdum* — men unga xatni o‘chirtirdim”. O‘rta asrlarda *tumor* termini *“*buklab o‘ralgan noma; o‘rama qog‘oz; xat; yirik yozilgan har qanday yozuv; duo yozilgan qog‘oz” ma’nolarni ifodalab kelgan.

“Devon”da *bit*= fe’lidan yasalgan yana boshqa leksemalar ham keltirilgan: *«bitigü* – “turklar va boshqalarning siyohdoni”; *bitiklik er* – yozuv egasi (yozuvni biladigan kishi) ma'nosida“;*«bitiklik neŋ* – bitishga mo‘ljallangan, ustiga yoziladigan narsa”; *bitik bitigüči* – xat bituvchi. O‘g‘uz va qipchoqlarda bu shakl *bitigchi* shaklida qo‘llanadi”.

“Devon”da turkiy leksemalarning keng ma’no imkoniyatiga ega eganligi ko‘zga tashlanadi. Rang-tus bildiruvchi *qora* so‘zining shaxsning ijtimoiy mavqeyini bildirgani qayd etilgan: Xoqoniya shohlari قرا “qara” deb atalgani qayd etilgan: *Boğra qara xaqan* kabi. Qoraxoniylarda *qora rang* buyuklik va kuch-qudrat ramzi bo‘lgan. Qullar *qara bash* deb yuritilgan. Bu so‘z o‘rxun-enasoy bitiktoshlarida ham uchraydi.

Hozirgi o‘zbek shevalarida faol qo‘llaniladigan ***qonuq*** so‘zining asarda ham tub ma’nosida, ham ko‘chma ma’nolarni ifodalashi aytilgan. Bu so‘zning yuzaga kelishi “qo‘nmoq, qo‘noq bo‘lmoq” ma'nosidagi fe'lga borib taqaladi. Birlamchi ma'noda *qonuq* “mehmon”ni bildirsa, ko‘chma ma'noda “insonning ruhi”ni anglatadi. Ko‘chma ma'noning yuzaga kelishida leksemaning birlamchi “mehmon” semasi asos vazifasini o‘tagan. “Insonning ruhi” ma'nosi asarda *öz qonuqï* birikmasi orqali ifodalangan. Bu o‘rinda ***öz*** so‘zi “tana”, ***qonuq*** leksemasi “mehmon ma'nosini bildirib, inson ruhiga nisbatan “vujud mehmoni”ni anglatgan.

Bardï közüm yaruqï,

Aldï özüm qonuqï,
Qanda erinč qanïqï,
Emdi užïn užğurur.

“Ko‘zimning nuri ketdi, mening ruhimni ham olib ketdi. U hozir qaerda ekan? Endi meni uyqudan uyg‘otadi. [Ko‘z qorachig‘im (sevikligim) ketdi. U ketishi bilan mening ruhimni ham o‘zi bilan o‘zi bilan birga olib ketdi. Endi u qaerda ekan? Uning yo‘qligi meni uyqudan uyg‘otadi, uyquga yo‘l bermaydi]. [DLT, I, 81]. ***Qon=*** “tushmoq, o‘rnashmoq, to‘xtamoq” leksemasidan –(uq) affiksi ishtirokida yasalgan. ***Qonuq*** qadimgi “Kalyanamqara va Papamqara” manbasida ham “meros” ma’nosida qo‘llanilgan [DLT,I,466]. “Qutadg‘u bilig”da ham bu leksema “mehmon” ma'nosini anglatgan: *Nelük arsïqar sen aja öldäči özüŋ iki künlük qonuq boldačï* – Nimaga mag‘rurlanasan, ey o‘luvchi, o‘zing ikki kunlik mehmon bo‘luvchi(san) (QBN, 3482).

Qonuqluq “ma'lum bir sathdan joy olish” ma'nosini bildiradi. U *qon-* fe'lidan *-(u)q* qo‘shimchasi bilan yasalgan [O‘TEL, I, 586] otga *-luq* affiksini qo‘shib hosil qilingan. Eski turkiy tilning ilk yodnomalarida “mehmondorchilik, ziyofat”, “mehmon uchun joy, xona” ma'nolarida qo‘llangan: *Telim türlüg ol bu qonuqluq ašï* – mehmondorchilik uchun xilma-xil yeguliklar [DTS,456]. XII – XIV asr uyg‘ur huquqiy hujjatlarida so‘zning “boshpana, panoh” semasi yuzaga chiqadi: *Erinčlig qutadmïš qonuqluqta qonar* – baxtsizlarga baxt-saodat keltiradigan boshpanada yashaydi [DTS,456]. “Qisasi Rabg‘uziy”da leksemaning faqatgina “mehmondorchilik” ma'nosi aks etgan: *Mavlā taālā vahiy qïldï: qamuğ učqan yügürgänlärgä fulan kün Sulaymān qonuqluqïŋğa hāzir boluŋ* (138v2). Shu tariqa, XIV asrga kelib, ushbu istilohning dastlabki “mehmondorchilik, ziyofat” ma'nosi qo‘llanishda davom etgan. Ko‘chma ma'nosi esa iste'moldan chiqib ketgan. Shuningdek, qissada *mehmāndārlïq* so‘zi ham zikr etilgan ma'noda ishlatilgan: *Ātika bu sözni Abu Tālibğa aydï: mehmāndārlïq qïlïp uluğlarnï yïğdï* (191v20). [Abdushukurov, 2017;135].

“Devonu lug‘otit turk”dagi turkiy istilohlar umumiste’mol so‘zlarining terminga xoslanishi, ma’nolari, tushunchani aks ettirish darajasi haqida ma’lumot berishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ijtimoiy leksikaning tarixiy taraqqiyoti, ma’no xususiyatlari, o‘zlashgan qatlam leksik birliklariga munosabati haqida muhim faktlarni taqdim etishi bilan e’tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. Филол. фан. д.-ри дисс. – Тошкент, 2017.
2. Дадабаев Ҳ. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.– Тошкент: Ёзувчи, 1991.
3. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. –Тошкент, 2017. –132 б.

4. Щербак А.М. Названия домашных и диких животных в тюркских языках. В кн.: Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Наука, 1961. –С.82-172.
5. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филология фанлари бўйича Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Тошкент, 2019.

Shartli qisqartmalar:

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I−IV жилд. –Тошкент, 1983−1985. III−624 б.

DLT – Девону луғотит турк. I− III.-Тошкент, 1960−1963. I−500 б.; II−428 б.; III− 463 б.

DTS – Древнетюркский словарь. –Л.,1969.

ESTYa – Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Наука, 1974−1989.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. − Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. 672 б.

O‘TEL – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). -Тошкент, 2000. − 600 б.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Shuhrat	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
Ashirboyev Samixon	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
Juraqobilova Xamida	She’riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta’siri	17
Mustafayev Fizuli	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqinda	24
Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
Turdiboyev Tohir	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
Abjalova Manzura	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba’zi masalalar	42
Sheronov Boyirboy	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
Madjidova Dilorom	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
Tolipova Dildora	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
Elova Dilrabo	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
Abdullayev Jumanazar	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
Israilova Saodat	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
Kasimova Ziyoda	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
Baxodirova Shaxlo	Lakuna va realiya munosabati	92

Hakimov Dilshod	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
Allaquliyeva Qunduz	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
Isoqulova Qunduz	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
Ismayilli Ayshen	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlər xülasə	122
Davronova Zarnigor	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
Muzaffarova Zarrina	Metonimiyaning konseptual modellari	136
Yusupova Aziza	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
Mamarasulova Maftuna	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
Abdurasulova Dilnoza	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
Soqiyeva Shirin	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
Abruyeva Zaxro	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
Bovmanova Bashorat	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
Jumaniyozova Charos	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
Xayrullayeva Ra’no	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
Tursunova Sojidaxon	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177

Utegenova O‘g‘iloy	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
Maxmudova Matluba	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
Xolmamatova Sarvinozxon	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	191
Turg‘unboyeva Dilnoza	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
O‘ralova Nargiza	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
Jabborova Aziza	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
Odilova Dilobar	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
Nazarov Qobilbek	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
Mullaboyeva Shirin	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
G‘aybullayev Erkinjon	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
Oripova Mavluda	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
Otaxonova Sohiba	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
Shodmonaliyeva Yulduz	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
Sobirova Maftuna	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
Umarova Shahzoda	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
Turg‘unova Maftuna	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
Muratova Nafisa	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274

	vositalarning o‘rni	
Murotov Hamro	Reklama matnlarining tasnifi	280
Normuminov Laziz	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
Xolmanova Zulxumor	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
Qurbonova Munavvara	Ontolingvistika va pragmalingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
Ruzibayeva Nigoraxon	Psychological needs in the language classroom	303
Abdurahmonova Muqaddas	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
Umurzoqova Marhabo	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
Abjalova Manzura	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
Ruzmetova Novval	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
G‘ulomova Nargiza	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
Dedaxanova Muazzam	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
Shamsiyeva Manzura	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
Xudaykulova Shaxnoza	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarning aksiolingvistik integratsiyasi	353
Ibragimova Sayyora	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
Tilyabayev Kamil	Благодарные: из эмоционального опыта	361

	изучения узбекского языка как второго	
Alimardanov Elyor	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
Bozorova Sabohat	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
Abduvoxidova Mavzuna	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
Mamadayupova Vasila	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
Azizova Feruza	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	385
Abdullayeva Roxila	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
Yusupova Shahzoda	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
Mamirova Xayriniso	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibrid modellari	398
Nabiyeva Parvina	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
O‘rinova Zarifa	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
Rayimjonova Matluba	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
Turobova Nargiza	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
Abdullajonova Madina	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
Pulatova Umriniso	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
Imomova Ismigul	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
Arolova Nafisa	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
Tursunboyeva Fayiza	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443

Amrullayeva Mohinur	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
Mirnosirova Dilbar	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
Aminova Zilola	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
Muratova Ademi	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
Umurzakova Zuxraxon	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
Maxmudjonova Nargizaxon	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa…	477
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
Mirzodjanova Malika	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
Komilova Gavharoy	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
Pulatova Zamira	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
Moldokulova Elina	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
Yo‘ldoshxonov Javohirbek	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
Abduqodirova Zebo	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509

Otamirzayeva Sug‘diyona	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
Sayfiyeva Komila	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
Madjidova Maftuna	Лингвосоматические единицы которие характерные для арабской культуры	529
Xasanova Sohibjamol	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
Lafasova Mavjuda	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539
Olimova Mushtariybonu	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
Akalin Ahmet	*Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu*	549
Rahmonqulov Abdunazar	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
Xakimova Mavzunadjon	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
Musurmankulova Shaxribon	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
Xodjayeva Mashhura	Влияние глабализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
Erkaboyeva Havojon	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581

Axmedova Niluzar	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
Seyhan Tanju	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
Abdushukurov Baxtiyor	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
Rahimi Farhad	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışları Üzerine	611
Jafarzade Vahide	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
Muhammadiyeva Dilafro‘z	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
Bo‘ronov Anvar	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
Xo‘janiyazova Shahnoza	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
Xolmurodova Mushtariy	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
Mirzayeva Ulker	Yunan mənbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
Babazade Rahshane	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
Yodgorov Hamid	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
O‘razova Iqbol	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obyekti sifatida	701
Azizzade Turkan	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqinda	705
Saygin Muhterem	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711

	Görge Bay)	
Hamishog‘lu Meryem	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk’ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
Bakirov Qudratillo	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
Sattorova Shahnoza	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
Maqsudova Feruza	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obyekti sifatida	745
Azizova Nilufar	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
O‘tkirbek Muhammad Sobir	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
Siddiqova Naimaxon	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
Qasimova Sema	“Kitabi-Dədə Qorqud” mətnlərində qadin-kişi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik təhlili	766
Turdiyeva Roza	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774